O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Termiz davlat pedagogika instituti
rektori _____ A.B. Xasanov
“28” avgust 2026-yil

13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO‘YICHA) IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURA (PhD) GA KIRISH IMTIHONI

DASTURI

Termiz – 2026

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko'rish uchun mo'ljallangan.

Dastur ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodologiyasi, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi, milliy tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik tadqiqot metodlari hamda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlarini qamrab oladi.

Dastur mazmuni ta'lim va tarbiya jarayonining nazariy-metodik asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'lim sifati va natijalarini baholash, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metodologik asoslarini o'z ichiga oladi.

Kirish imtihoni talabgorning nazariy bilimlari bilan bir qatorda, ilmiy muammoni aniqlash, uning dolzarbligini asoslash va tahlil qilish, tegishli fan sohasi bo'yicha metodik yechimlar ishlab chiqish, ilg'or pedagogik tajribalarni tanqidiy baholash, zamonaviy pedagogik yondashuv va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda o'z sohasidagi dolzarb ilmiy-metodik masalalarga asoslangan munosabat bildirish bo'yicha kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Dastur amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ta'lim va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablari asosida shakllantirilgan va muntazam ravishda takomillashtirib boriladi.

Tuzuvchilar: p.f.b.f.d. (PhD), dotsent L.A. Muxtarova

p.f.b.f.d. (PhD), dotsent S.I. Tursunova

Taqrizchilar: p.f.d. (DSc), professor Sh.U. Nurullayeva

p.f.d. (DSc), professor O'.N. Sultonova

p.f.d. (DSc), professor A.R. Hamroyev

Dastur Termiz davlat pedagogika institutining "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasining 2026-yil 26 -avgustdagi № 1 -sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Mazkur dastur Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil "26" avgustdagi № 3 -sonli majlisida muhokama qilinib, ma'qullangan.

KIRISH

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisosligi pedagogik jarayonning qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini, shuningdek, muayyan o'quv fanlarini o'qitishning nazariy-metodik asoslarini o'rganadi. Ixtisoslik doirasida ta'limning uzluksizligi, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli transformatsiya, innovatsion metodlar, pedagogik diagnostika, o'quv natijalarini baholash va ta'lim sifatini ta'minlash kabi masalalar muhim o'rin tutadi.

Ushbu dastur 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlarning nazariy-metodik tayyorgarlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan. Dasturda ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari, asosiy tamoyillari, zamonaviy tendensiyalari hamda ularning jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi yoritiladi.

Talabgorning ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining o'ziga xos xususiyatlari, boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda tarbiya metod va vositalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalari baholanadi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya amaliyotining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash qobiliyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Dasturning asosiy maqsadi talabgorlarning ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha fundamental bilimlari, ilmiy-metodik tayyorgarligi, pedagogik jarayonlarni tahlil qilish va baholash, zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning asosiy vazifalari:

talabgorlarning ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash;

ta'lim va tarbiya metodikasi fanining shakllanishi, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish qobiliyatini baholash;

ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalarini bilish darajasini aniqlash;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish kompetensiyasini baholash;

ta'lim va tarbiya sohasidagi ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasini aniqlash;

ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb muammolarini aniqlash, tahlil qilish va ularning ilmiy-metodik yechimlarini asoslash qobiliyatini baholash;

pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy metodlari va metodologik yondashuvlaridan foydalanish darajasini aniqlash;

talabgorning mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish va ilmiy natijalarni asoslashga tayyorgarlik darajasini baholash.

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha talabgor quyidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini bilish;

ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalarini zamonaviy pedagogik talablar asosida belgilash hamda rejalashtirish;

o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlovchi tarbiya metodlari, shakllari va vositalarini bilish va ulardan samarali foydalanish;

zamonaviy pedagogik va tarbiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga maqsadga muvofiq tatbiq etish;

tarbiyaviy jarayondagi pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ta'lim-tarbiya natijalarini baholash va tegishli metodik xulosalar chiqarish;

o'quvchilar jamoasi va individual rivojlanish xususiyatlarini o'rganishning pedagogik-diagnostik metodlarini bilish;

o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklari va muammolarining sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishning metodik yo'llarini asoslash;

ta'lim va tarbiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunan va metodik jihatdan tahlil qilish;

milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida ijtimoiy-emotsional ta'lim elementlarini dars, sinfdan tashqari faoliyat va ta'lim muhitiga integratsiyalash;

xavfsiz, inklyuziv va zo'ravonlikdan xoli ta'lim-tarbiya muhitini tashkil etishning metodik asoslarini bilish;

raqamli pedagogika va sun'iy intellekt vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq, xavfsiz va etik foydalanish;

miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot metodlaridan foydalanish, ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va interpretatsiya qilish;

akademik yozuv, ilmiy manbalar bilan ishlash va tadqiqot etikasi talablariga rioya qilish;

ilg'or mahalliy va xorijiy pedagogik tajribalarni tahlil qilish, qiyoslash va ularning ta'lim-tarbiya amaliyotidagi ahamiyatini baholash;

pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, metodik muammolarni aniqlash va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish;

ta'lim va tarbiya metodikasi sohasida ilmiy-tadqiqot topshiriqlarini mustaqil bajarish, olingan natijalarni ilmiy jihatdan asoslash va xulosalash.

Talabgor ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini anglagan, innovatsion tarbiya texnologiyalarini tanlay va qo'llay oladigan, pedagogik jarayonlarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qila oladigan hamda mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga tayyor bo'lishi lozim.

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon dasturining asosiy mazmuni

1. Ta'lim va tarbiya nazariyasining metodologik asoslari

Ta'lim va tarbiya tushunchalarining mohiyati, pedagogikaning obyekti, predmeti, funksiyalari va asosiy kategoriyalari. Pedagogik jarayonning yaxlitligi, tizimliligi va uzluksizligi.

Ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-madaniy mohiyati, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'limning insonparvarlik, demokratik va milliy xususiyatlari. Ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi.

Pedagogik metodologiyaning falsafiy, umumilmiy, konkret-ilmiy va texnologik darajalari. Ilmiy bilishning empirik va nazariy metodlari.

Zamonaviy pedagogik paradigmalar: kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integrativ, akmeologik, aksiologik va raqamli yondashuvlar.

2. Didaktika va zamonaviy ta'lim jarayoni

Didaktikaning predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalari. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim maqsadi, mazmuni, jarayoni va natijalarining o'zaro bog'liqligi.

Ta'lim mazmunini belgilash mezonlari. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarining o'zaro aloqadorligi.

O'qitish metodlari va vositalari. Muammoli, tadqiqot, loyiha, interfaol va hamkorlik metodlari. Darsni loyihalash va tashkil etish.

An'anaviy, masofaviy, aralash va gibrid ta'lim shakllari. Ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim, refleksiya va teskari aloqani tashkil etish.

3. Tarbiya nazariyasi va metodikasi

Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsadi, vazifalari, qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiyaning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari.

Ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, vatanparvarlik, huquqiy, ekologik, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya. Oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tashkil etish, diagnostika qilish va monitoring.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi, media va axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, ijtimoiy-emotsional ta'lim hamda pedagogik profilaktika.

4. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar

Pedagogik texnologiya tushunchasi, tuzilishi, mazmuni va asosiy mezonlari. Ta'lim jarayonini texnologik loyihalash va kutilayotgan natijalarni belgilash.

Muammoli ta'lim, loyiha metodi, case-study, hamkorlikda o'qitish, differensial va individual ta'lim, teskari sinf, STEAM, CLIL va boshqa zamonaviy pedagogik yondashuvlar.

Raqamli ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, LMS, virtual ta'lim muhiti hamda sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish.

Pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va samaradorligini baholash mezonlari.

5. Pedagogik diagnostika va ta'lim natijalarini baholash

Pedagogik diagnostikaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va metodlari. Nazorat va baholashning zamonaviy shakllari.

Diagnostik, formativ va summativ baholash. Baholash mezonlari, indikatorlari va vositalari.

Testologiya asoslari. Test topshiriqlarining turlari, validlik, ishonchlilik, diskriminativlik va qiyinlik ko'rsatkichlari.

Kompetensiyalarni baholash, portfolio, rubrika, o'zaro baholash va o'zini o'zi baholash. Ta'lim sifatini monitoring qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish.

6. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy muammo, mavzu, obyekt, predmet, maqsad, vazifa, ilmiy faraz, ilmiy yangilik va amaliy natija tushunchalari.

Pedagogik tadqiqot metodlari: kuzatish, suhbat, anketa, test, kontent-tahlil, ekspert baholash, pedagogik eksperiment, modellashtirish va statistik tahlil.

Pedagogik eksperimentning aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish.

Miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot metodlari. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va validligini ta'minlash. Ilmiy manbalar bilan ishlash, akademik yozuv, iqtibos keltirish, akademik halollik va tadqiqot etikasi.

7. Sohalar bo'yicha ta'lim va tarbiya metodikasi

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi doirasida tegishli ta'lim sohasi yoki fan yo'nalishining mazmuni, maqsad va vazifalari, o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos metodik xususiyatlari.

Tegishli fan yoki ta'lim sohasi bo'yicha o'quv mazmunini tanlash va tizimlashtirish, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini belgilash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini loyihalash.

Sohaga oid pedagogik muammolarni aniqlash, ularni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagogik diagnostika, ta'lim natijalarini baholash, metodik ta'minotni takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.

Tegishli sohada ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, ilmiy muammoni asoslash, tadqiqot metodlarini tanlash, tajriba-sinov ishlarini loyihalash va olingan natijalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

FANNING XUSUSIY MASALALARI

Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi

Ona tili va adabiyot ta'limining maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari va zamonaviy yondashuvlari. O'quvchilarda nutqiy, lingvistik, kommunikativ va adabiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish metodikasi.

Ona tili darslarida fonetika, leksikologiya, morfologiya, simtaksis, imlo va punktuatsiyani o'qitish metodikasi. Matn ustida ishlash, matnni tahlil qilish, qayta ishlash va yaratish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi, yozma va og'zaki nutqi hamda nutq madaniyatini rivojlantirish.

Adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish, janr xususiyatlari, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalarini o'rganish metodikasi. O'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda adabiy-estetik didini tarbiyalash.

Ona tili va adabiyot ta'limida muammoli, interfaol, loyiha, tadqiqot va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Ta'lim natijalarini mezon, indikator, test, amaliy va ijodiy topshiriqlar asosida baholash.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi

Xorijiy tillarni o'qitishning kommunikativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlari. Til ko'nikmalarini — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni — integratsiyalashgan holda rivojlantirish metodikasi. Xorijiy til ta'limining maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari va vositalari.

Leksik, grammatik va fonetik materiallarni o'qitish metodikasi, kommunikativ mashqlar va topshiriqlarni loyihalash. Autentik o'quv materiallari, raqamli ta'lim resurslari, multimedia vositalari va interfaol texnologiyalardan samarali foydalanish.

CEFR talablari asosida til kompetensiyasini shakllantirish va baholash, baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish, test hamda topshiriqlarni metodik jihatdan loyihalash. Formativ va summativ baholash. CLIL texnologiyasi va fanlararo til integratsiyasi, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida xorijiy til ta'limini tashkil etish.

Geografiya o'qitish metodikasi

Geografiya ta'limining kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va muammoli yondashuvlari. Geografik bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Xarita, atlas, globus, statistik va kartografik ma'lumotlar bilan ishlashni o'rgatish metodikasi.

Geografik amaliy ishlar, ekskursiyalar va dala mashg'ulotlarini tashkil etish. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jarayonlarni tahlil qilish, taqqoslash va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Geografik masalalarni muammoli, loyiha va tadqiqot asosida o'rganish.

Ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish g'oyalarini geografiya ta'limi mazmuniga integratsiyalash. Hududiy va global muammolarni o'rganishda loyiha-tadqiqot metodlaridan foydalanish. Geografik ta'lim natijalarini mezon, indikator, test va amaliy topshiriqlar asosida baholash.

Biologiya o‘qitish metodikasi

Biologik tushunchalar tizimini shakllantirishning kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va muammoli yondashuvlari. Kuzatish, tajriba, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. Biologik obyekt va jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va xulosalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tirik tabiat obyektlari bilan ishlash metodikasi, biologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. Biologiya ta’limida tabiiy, raqamli va vizual ta’lim vositalaridan foydalanish.

Biologiya ta’limida muammoli vaziyat, keys, loyiha va tadqiqot metodlaridan foydalanish. O‘quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish. Biologik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mezon, indikator, test va amaliy topshiriqlar asosida baholash.

Kimyo o‘qitish metodikasi

Kimyoviy tushunchalar, qonunlar va nazariyalarni shakllantirishning kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va muammoli yondashuvlari. Kimyoviy til, formulalar, tenglamalar va belgilar tizimi bilan ishlash metodikasi. Kimyoviy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.

Kimyoviy tajribalar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. Kimyoviy moddalar va jihozlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, o‘quvchilarda tajriba o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kimyo ta’limida hisoblash masalalarini yechishga o‘rgatish, virtual laboratoriyalar, raqamli modellar va interfaol ta’lim vositalaridan foydalanish. Kimyoviy bilimlarni ekologik va hayotiy kontekstlar bilan bog‘lash. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini mezon, indikator, test va amaliy topshiriqlar asosida baholash.

Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi

Fizik tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalarni tajriba, kuzatish, modellashtirish va muammoli yondashuv asosida o‘qitish. Fizik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish. Fizik masalalarni yechishga o‘rgatish metodikasi.

Laboratoriya ishlari, namoyish tajribalari va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. O‘lchash natijalarini qayta ishlash, o‘lchash xatoliklarini aniqlash va tahlil qilish. Fizika kabineti va laboratoriya jihozlaridan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Astronomik kuzatishlarni tashkil etish, fizik modellashtirish, raqamli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish. Fizika ta’limini matematika, informatika, astronomiya va boshqa fanlar bilan integratsiyalash. O‘quvchilarning fizik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini mezon, indikator, test va amaliy topshiriqlar asosida baholash.

Matematika o‘qitish metodikasi

Matematika ta’limining maqsadi, mazmuni, tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari. Matematik tushuncha, teorema, isbot va masalalarni yechishga o‘rgatish

metodikasi. O‘quvchilarda mantiqiy, algoritmik, tanqidiy va fazoviy tafakkurni rivojlantirish.

Algebra, geometriya, ehtimollar nazariyasi va statistika elementlarini o‘qitish metodikasi. Matematik masalalarni tahlil qilish, yechish usullarini tanlash, matematik fikrlash va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Matematik modellashtirish, differensial va individual ta’lim yondashuvlaridan foydalanish. Dinamik geometriya vositalari, kompyuter algebra tizimlari, interfaol va raqamli ta’lim resurslarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash. Matematik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mezon, indikator, test, masala va amaliy topshiriqlar asosida baholash.

Informatika o‘qitish metodikasi

Informatika ta’limining maqsadi, mazmuni, tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari. Axborot, algoritm, dasturlash, ma’lumotlar bazasi, kompyuter tarmoqlari va axborot xavfsizligi tushunchalarini o‘qitish metodikasi. O‘quvchilarda raqamli va axborot kompetensiyalarini shakllantirish.

Algoritmik va hisoblash tafakkurini rivojlantirish metodikasi. Dasturlash asoslarini o‘rgatish, dasturlash muhitlari, amaliy va loyiha topshiriqlaridan foydalanish. Raqamli laboratoriyalar, modellashtirish va interfaol vositalar asosida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Raqamli savodxonlik, media va axborot madaniyatini shakllantirish, axborot xavfsizligi va raqamli muhitda mas’uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, samaradorligi va etik jihatlari. Informatika bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mezon, indikator, test, amaliy va loyiha topshiriqlari asosida baholash.

Texnologik ta’lim va mehnat ta’limi metodikasi

Texnologik ta’limning maqsadi, mazmuni, tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari. O‘quvchilarda texnologik kompetensiyalar, mehnat madaniyati, ijodiy va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish. Ta’lim jarayonini kasbiy yo‘naltirish bilan uyg‘unlashtirish metodikasi.

Ustaxona, amaliy va loyiha mashg‘ulotlarini tashkil etish. Mehnat va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish. Loyiha-konstruktorlik faoliyatini tashkil etish, texnologik jarayonlarni rejalashtirish, modellashtirish va amaliy natijalarni baholash.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish, tadbirkorlik va iqtisodiy savodxonlik elementlarini shakllantirish. Dizayn, texnik ijodkorlik va texnologik jarayonlarni modellashtirishda zamonaviy va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Texnologik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mezon, indikator, amaliy topshiriq va loyiha natijalari asosida baholash.

Tarix o‘qitish metodikasi

Tarix ta’limining maqsadi, mazmuni, tamoyillari, metodlari va zamonaviy yondashuvlari. O‘quvchilarda tarixiy bilim, tarixiy tafakkur va tarixiy ongni

shakllantirish metodikasi. Tarixiy voqea va jarayonlarni makon va zamon, sabab-oqibat bog‘lanishlari hamda davriylik asosida o‘rganish va tahlil qilish.

Tarixiy manbalar, xaritalar, hujjatlar, statistik ma’lumotlar va boshqa tarixiy materiallar bilan ishlash metodikasi. Manbalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ularning ishonchliligini baholash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tarix ta’limida muzey, arxiv, tarixiy obidalar, ekskursiyalar, raqamli tarixiy resurslar va virtual ta’lim vositalaridan foydalanish. Tarixiy muammolarni loyiha va tadqiqot asosida o‘rganish, o‘quvchilarning mustaqil izlanish va ilmiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tarixiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni mezon, indikator, test, manbaga asoslangan hamda loyiha topshiriqlari asosida baholash.

Chizmachilik va muhandislik grafikasi metodikasi

Proyeksion chizmachilik, geometrik yasashlar, standartlar va texnik chizmalarni o‘qish hamda bajarishga o‘rgatish.

Grafik savodxonlik, fazoviy tasavvur va konstruktorlik tafakkurini rivojlantirish.

Kompyuter grafikasi, CAD vositalari, elektron chizmalar va amaliy loyiha topshiriqlaridan foydalanish.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi

Boshlang‘ich ta’limning maqsadi, mazmuni, tamoyillari va integrativ xususiyatlari, ta’lim jarayonini o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlariga mos tashkil etish metodikasi. Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar.

Ona tili va o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar hamda tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. Fanlararo integratsiya, matn bilan ishlash, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, o‘qish savodxonligi va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv motivatsiyasi, o‘qish va funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasi. Muammoli, o‘yin, loyiha, interfaol va tadqiqot metodlaridan foydalanish. Raqamli ta’lim resurslari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.

Boshlang‘ich ta’limda ta’lim natijalarini diagnostika qilish va baholash, mezon va indikatorlarni ishlab chiqish, test, amaliy va ijodiy topshiriqlardan foydalanish. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini monitoring qilish hamda ta’lim samaradorligini tahlil qilish.

13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI IXTISOSLIGIDAN IMTIHON SAVOLLARI

1. Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasining obyekti, predmeti va funksiyalarini izohlang.
2. Ta’lim metodikasining pedagogika tizimidagi metodologik maqomini asoslang.
3. Ta’lim metodikasida nazariya va amaliyot munosabatini tahlil qiling.

4. Ta'lim metodikasining asosiy ilmiy kategoriyalari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib bering.
5. Ta'lim metodikasini tadqiq etishda sistemali yondashuvning imkoniyatlarini asoslang.
6. Ta'lim metodikasida faoliyatli yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qiling.
7. Ta'lim metodikasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning konseptual mohiyatini izohlang.
8. Ta'lim metodikasida kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslarini asoslang.
9. Ta'lim metodikasida aksiologik yondashuv mazmunini tahlil qiling.
10. Ta'lim metodikasida antropologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini baholang.
11. Ta'lim metodlarining didaktik mohiyati va funksional xususiyatlarini tahlil qiling.
12. Ta'lim metodlarini tasniflashning nazariy mezonlarini taqqoslang.
13. Ta'lim metodini tanlashga ta'sir etuvchi pedagogik-metodik omillarni aniqlang.
14. Ta'lim metodlari, maqsad va natija o'rtasidagi funksional aloqani asoslang.
15. Ta'lim metodlarining mazmun xususiyatlariga bog'liqligini misollar asosida izohlang.
16. Ta'lim metodlarining o'quvchi faoliyatini tashkil etishdagi rolini baholang.
17. Reproduktiv ta'lim metodlarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qiling.
18. Muammoli-izlanuvchan ta'lim metodlarining nazariy asoslarini asoslang.
19. Tadqiqotga asoslangan ta'lim metodlarining metodik xususiyatlarini tahlil qiling.
20. Mantiqiy ta'lim metodlarining bilish faoliyatini rivojlantirishdagi o'rnini izohlang.
21. Induksiya va deduksiyaning ta'lim metodikasidagi didaktik imkoniyatlarini taqqoslang.
22. Analiz va sintezning o'quv-bilish jarayonidagi metodik ahamiyatini asoslang.
23. Taqqoslash va analogiyaning ta'lim mazmunini o'zlashtirishdagi rolini misollar asosida izohlang.
24. Umumlashtirish va abstraksiyaning nazariy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
25. Empirik va nazariy bilish metodlarining ta'lim metodikasidagi nisbatini asoslang.
26. Didaktikaning ta'lim metodikasi uchun nazariy-metodologik ahamiyatini asoslang.
27. Ta'lim jarayonining sistemali tuzilishini tahlil qiling.
28. Ta'lim jarayoni komponentlarining funksional yaxlitligini izohlang.
29. Ta'lim maqsadi va natijasining didaktik munosabatini taqqoslab tahlil qiling.
30. Ta'lim mazmunining pedagogik kategoriya sifatidagi mohiyatini ochib bering.
31. Ta'lim mazmunini shakllantirishning ilmiy-pedagogik mezonlarini aniqlang.
32. Ta'lim mazmuni, bilim, ko'nikma va kompetensiya o'rtasidagi aloqani tahlil qiling.
33. Ta'lim mazmunining shaxs rivojlanishiga ta'sir mexanizmlarini izohlang.

34. Ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiyalash zaruratini asoslang.
35. Ta'lim mazmunini integratsiyalashning didaktik asoslarini tahlil qiling.
36. Ta'lim mazmunida fanlararo aloqalarni metodik ta'minlash yo'llarini izohlang.
37. Davlat ta'lim standartlarining ta'lim mazmunini belgilashdagi rolini baholang.
38. Malaka talablarining ta'lim natijalarini belgilashdagi ahamiyatini asoslang.
39. O'quv rejasining ta'lim jarayonini loyihalashdagi funksiyalarini tahlil qiling.
40. Fan dasturining metodik tuzilishi va mazmuniy mantiqini izohlang.
41. Ta'lim mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar nisbatini tahlil qiling.
42. Ta'lim mazmunini zamonaviylashtirishning asosiy tendensiyalarini aniqlang.
43. Ta'lim mazmunida funksional savodxonlikni shakllantirish imkoniyatlarini asoslang.
44. Ta'lim mazmunini amaliyotga yo'naltirishning metodik asoslarini izohlang.
45. Ta'lim mazmunining kasbiy va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqligini baholang.
46. Ta'limni tashkil etish shakllarining didaktik tabiatini tahlil qiling.
47. Ta'lim shakllarini tasniflashning metodik asoslarini taqqoslang.
48. Sinf-dars tizimining didaktik imkoniyatlarini asoslang.
49. Zamonaviy ta'lim sharoitida sinf-dars tizimining transformatsiyasini tahlil qiling.
50. Darsning yaxlit didaktik tizim sifatidagi tuzilishini izohlang.
51. Dars maqsadini natijaga yo'naltirib loyihalash tamoyillarini asoslang.
52. Dars mazmunini metodik strukturalashtirish prinsiplarini tahlil qiling.
53. Dars metodlari va didaktik maqsad uyg'unligini asoslang.
54. Darsda o'quv faoliyatini loyihalashning metodik asoslarini izohlang.
55. Zamonaviy dars sifatini baholashning metodik mezonlarini aniqlang.
56. Darsning pedagogik va metodik tahlilini taqqoslang.
57. Ta'lim jarayonida frontal ish shaklining didaktik imkoniyatlarini baholang.
58. Juftlikda o'qitishning didaktik imkoniyatlarini misollar asosida izohlang.
59. Guruhli ta'limni tashkil etishning metodik shartlarini asoslang.
60. Individual ta'limni metodik loyihalashning asosiy tamoyillarini tahlil qiling.
61. Dialogik ta'limni tashkil etish texnologiyasini izohlang.
62. Seminar mashg'ulotlarining metodik potensialini baholang.
63. Amaliy mashg'ulotlarning ta'limiy imkoniyatlarini tahlil qiling.
64. Laboratoriya mashg'ulotlarini metodik loyihalash bosqichlarini asoslang.
65. Mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik asoslarini tahlil qiling.
66. Aralash ta'lim modelining metodik xususiyatlarini an'anaviy ta'lim bilan taqqoslang.
67. Masofaviy ta'limning didaktik imkoniyatlari va cheklovlarini baholang.
68. Inverted classroom modelining metodik imkoniyatlarini asoslang.
69. Dasturlashtirilgan ta'lim modelining didaktik asoslarini izohlang.
70. Ta'lim shakllarini raqamli muhitga moslashtirish muammolarini tahlil qiling.
71. Ta'lim vositalarining didaktik tizimdagi funksional o'rnini izohlang.
72. Ta'lim vositalarini tasniflashning metodik mezonlarini taqqoslang.

73.Didaktik materiallarni tanlash va metodik ishlab chiqish prinsiplarini asoslang.
74.O‘quv-metodik qo‘llanmalarning ta’lim jarayonidagi funksiyalarini tahlil qiling.
75.Ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslarini izohlang.
76.Ta’lim vositalarini ta’lim maqsadiga muvofiq tanlash mezonlarini aniqlang.
77.Ta’lim mazmunini vizual modellashtirishning metodik imkoniyatlarini baholang.
78.Pedagogik texnologiyaning ilmiy-metodologik mohiyatini ochib bering.
79.Pedagogik texnologiyaning asosiy konseptual belgilarini tahlil qiling.
80.Pedagogik texnologiya strukturasining asosiy komponentlarini izohlang.
81.Pedagogik texnologiya samaradorligini belgilovchi mezonlarni asoslang.
82.Ta’lim metodi va pedagogik texnologiyaning funksional farqlarini taqqoslang.
83.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining metodik asoslarini tahlil qiling.
84.Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini izohlang.
85.Muammoli ta’lim texnologiyasining didaktik mexanizmini asoslang.
86.Loyihaviy ta’lim texnologiyasining metodik imkoniyatlarini baholang.
87.Case-study texnologiyasining ta’limiy potensialini tahlil qiling.
88.Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining pedagogik asoslarini izohlang.
89.Modulli ta’lim texnologiyasining strukturasini tahlil qiling.
90.Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasining metodik asoslarini asoslang.
91.Didaktik o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi funksiyalarini baholang.
92.Interaktiv ta’lim texnologiyalarining metodik imkoniyatlarini tahlil qiling.
93.Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash mezonlarini aniqlang.
94.Pedagogik innovatsiyalarni ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini izohlang.
95.Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sifatiga ta’sir mexanizmlarini asoslang.
96.Raqamli ta’lim muhitining didaktik tuzilishini tahlil qiling.
97.Elektron ta’lim resurslarining metodik funksiyalarini izohlang.
98.Multimedia texnologiyalarining ta’lim samaradorligiga ta’sirini baholang.
99.Virtual ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qiling.
100.Raqamli resurslarni metodik ekspertizadan o‘tkazish mezonlarini asoslang.
101.Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qiling.
102.Sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik-etik mezonlarini asoslang.
103.Raqamli ta’limda o‘quv faoliyatini individuallashtirish imkoniyatlarini baholang.
104.Raqamli ta’lim resurslarining ta’lim natijalariga ta’sirini tahlil qiling.
105.Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining metodik faoliyatidagi o‘zgarishlarni izohlang.
106.Kompetensiya tushunchasining ilmiy-pedagogik mazmunini izohlang.
107.Kompetentlik tushunchasining metodik mohiyatini tahlil qiling.
108.Kompetensiya va kompetentlik kategoriyalarining o‘zaro nisbatini taqqoslang.
109.Kompetensiyaviy yondashuvning didaktik asoslarini asoslang.
110.Kompetensiyalarni ta’lim mazmuniga integratsiyalash metodikasini tahlil qiling.

111.Kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlarining asosiy xususiyatlarini aniqlang.
112.Kompetensiyalarni baholashning metodik mezonlarini asoslang.
113.Pedagogik kompetentlik strukturasining tarkibiy qismlarini tahlil qiling.
114.O‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini izohlang.
115.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning konseptual asoslarini asoslang.
116.O‘quvchini ta’lim subyekti sifatida shakllantirish metodikasini tahlil qiling.
117.Ta’lim motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini izohlang.
118.O‘quv-bilish faolligini rag‘batlantirish metodikasini baholang.
119.Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini tahlil qiling.
120.Ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini taqqoslang.
121.Tarbiya jarayonining pedagogik mohiyatini izohlang.
122.Tarbiya maqsadini metodik loyihalash asoslarini tahlil qiling.
123.Tarbiya mazmunining tarkibiy tuzilishini ochib bering.
124.Tarbiya tamoyillarining metodik funksiyalarini asoslang.
125.Tarbiya metodlarini tasniflashning ilmiy asoslarini tahlil qiling.
126.Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlarining pedagogik imkoniyatlarini baholang.
127.Faoliyatni tashkil etish metodlarining tarbiyaviy potensialini izohlang.
128.Rag‘batlantirish metodlarining pedagogik mexanizmini asoslang.
129.Tarbiya jarayonida namuna metodining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qiling.
130.Jamoaning shaxs tarbiyasidagi pedagogik imkoniyatlarini baholang.
131.O‘quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasini izohlang.
132.Tarbiya jarayonida oila va ta’lim muassasasi hamkorligining ahamiyatini asoslang.
133.Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning metodik asoslarini tahlil qiling.
134.Fuqarolik tarbiyasining mazmuniy komponentlarini aniqlang.
135.Vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish metodikasini asoslang.
136.Ekologik tarbiyaning zamonaviy metodik yondashuvlarini taqqoslang.
137.Huquqiy tarbiyaning pedagogik imkoniyatlarini baholang.
138.Estetik tarbiyani tashkil etish metodikasini izohlang.
139.Mehnat tarbiyasining shaxs rivojidagi ahamiyatini asoslang.
140.Zamonaviy tarbiya texnologiyalarining metodik xususiyatlarini tahlil qiling.
141.Pedagogik diagnostika tushunchasining ilmiy-metodik mazmunini izohlang.
142.Diagnostik faoliyatning ta’lim jarayonidagi funksiyalarini tahlil qiling.
143.Ta’lim natijalarini diagnostikalash metodlarini taqqoslang.
144.Pedagogik nazoratning didaktik funksiyalarini asoslang.
145.Baholashning ta’lim jarayonidagi funksional ahamiyatini baholang.
146.Formativ baholashning metodik mexanizmini izohlang.
147.Summativ baholashning metodik xususiyatlarini tahlil qiling.
148.Baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish metodikasini asoslang.
149.Pedagogik tajriba-sinov natijalarini ilmiy tahlil qilish metodikasini izohlang.

150.Ta'lim metodikasi sohasida ilmiy tadqiqot natijalarini asoslash mezonlarini aniqlang.

BAHOLASH MEZONLARI

1. Talabgorning javobi 90–100 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan ilmiy-metodik muammoning mohiyatini to'liq va adekvat anglagan bo'lishi;
- masalani nazariy, metodologik va metodik jihatdan izchil tahlil qila olishi;
- javobni mustaqil, mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash asosida bayon qilishi;
- ko'rib chiqilayotgan masalani pedagogika, didaktika, ta'lim metodikasi va yondosh ilmiy masalalar bilan uzviy bog'lay olishi;
- nazariy qarashlarni ta'lim amaliyoti bilan bog'lab, ilmiy va hayotiy misollar asosida dalillashi;
- mazkur masala bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilishi, ularning o'xshash va farqli jihatlarini asoslay olishi;
- ilmiy-pedagogik kategoriyalar, tushunchalar va terminlardan to'g'ri hamda erkin foydalanishi;
- mavjud ilmiy qarashlarga nisbatan mustaqil ilmiy munosabat bildira olishi;
- muammo yuzasidan asoslangan metodik xulosa va takliflar bera olishi;
- javobining ilmiyligi, mantiqiy izchilligi, dalillanganligi va metodik jihatdan asoslanganligi bilan ajralib turishi lozim.

2. Talabgorning javobi 70–89 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan masalaning mohiyatini to'g'ri va asosan to'liq anglagan bo'lishi;
- javobda nazariy bilimlar yetarli darajada aks etishi, biroq reproduktiv yondashuv ustunlik qilishi;
- masalani yondosh pedagogik va metodik masalalar bilan qisman bog'lay olishi;
- nazariy fikrlarni asosan o'quv adabiyotlari va mavjud ilmiy qarashlar asosida izohlashi;
- masala yuzasidan hayotiy va pedagogik-amaliy misollar keltira olishi;
- ayrim olimlar yoki tadqiqotchilarning fikrlarini bayon qilishi, biroq ularni chuqur qiyosiy-tanqidiy tahlil qilishda cheklanganlik kuzatilishi;
- ilmiy-pedagogik termin va kategoriyalardan foydalanishi, biroq ularning mazmunini izohlashda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yishi;
- javobda mustaqil fikr va metodik xulosalar mavjud bo'lsa-da, ularning ilmiy asoslanganlik darajasi yetarli bo'lmasligi mumkin.

3. Talabgorning javobi 60–69 ball bilan baholanishi uchun:

- savolda qo'yilgan masala mohiyatini qisman anglagan bo'lishi;
- javobda umumiy nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, ularni metodik jihatdan izchil asoslay olmasligi;

- masalaning boshqa pedagogik va metodik muammolar bilan aloqasini yetarli darajada ochib bera olmasligi;
- nazariy fikrlarni amaliy misollar bilan bog‘lashda qiyinchilikka duch kelishi;
- keltirilgan misollar asosan kundalik yoki umumiy pedagogik kuzatishlar bilan chegaralanishi;
- ilmiy-pedagogik atamalardan foydalanishi, biroq ularning chuqur ilmiy-metodologik mohiyatini to‘liq anglamasligi;
- javobda mustaqil fikrlar mavjud bo‘lsa-da, ular yetarli darajada dalillanmagan bo‘lishi;
- masala yuzasidan umumiy xulosa bera olishi, biroq aniq metodik yechim yoki ilmiy takliflarni asoslashda qiynalishi mumkin.

4. Talabgorning javobi 0–59 ball bilan baholanadi, agar:
- savolda qo‘yilgan ilmiy-metodik masalaning mohiyatini yetarli darajada anglamasa;
- javob mazmuni savolda qo‘yilgan masalaga to‘liq mos kelmasa yoki mavzudan chetlashishlar kuzatilsa;
- nazariy bilimlarni izchil va mantiqiy bayon qila olmasa;
- javob muayyan manbani mexanik ravishda takrorlash bilan chegaralansa;
- pedagogik hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi sabab-oqibat, funksional va metodik aloqalarni tushuntira olmasa;
- ilmiy-pedagogik kategoriyalar va terminlardan noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz foydalansa;
- masala yuzasidan keltirilgan misollar mavzuga mos kelmasa yoki faqat umumiy kundalik tasavvurlarga asoslansa;
- olimlar va tadqiqotchilar qarashlarini mazmunan farqlay olmasa;
- mustaqil, tanqidiy va ilmiy fikrlash ko‘nikmalari yetarli darajada namoyon bo‘lmasa;
- javobda ilmiy asoslangan xulosa, metodik tavsiya yoki mustaqil munosabat mavjud bo‘lmasa.

Izoh: Talabgorning javobi baholanishida nafaqat ma’lumotlarni eslab qolish darajasi, balki uning ilmiy muammoni anglash, tahlil qilish, qiyoslash, dalillash, metodik jihatdan asoslash, mustaqil xulosa chiqarish va mavjud nazariy bilimlarni ta’lim amaliyotiga tatbiq eta olish qobiliyati asosiy mezon sifatida belgilanadi.

O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023. https://lex.uz/uz/docs/-6445145 - 65 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni // – Toshkent: 23 sentyabr, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni.

5. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2025-yil 28-apreldagi **“Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PF-73-son **farmoni.**

6. **O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.** O‘RQ-901-son, 2024-yil 1-fevral.

7. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –488 b.

8. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. –56 b.

9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O‘qituvchi 1993.

10. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Darslik. - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2010. - 400 b.

11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. - 418 b.

12. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasdi. Darslik. // B. Xodjayev va boshqalar. - Toshkent: IQTISODIYOT DUNYOSI nashriyoti, 2018 - 190 b.

13. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi. Darslik. Mualliflar: O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b.

14. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika (darslik). – T., «Fan va texnologiyalar», 2008. - 288 b.

15. Умарова, М.Х. Теория и истории педагогики [Текст]: учебное пособие для направления бакалавриата область образования 5110900 - Педагогика и психология/М. Умарова. – Т.: Чулпан. 2018. – 372 с.

16. Yo‘ldoshev O‘.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2017. - 376 b.

17. Нишонова С. Турдикулов Э.О. Педагогик атамалар луғати. – Т. “Фан” нашриёти, - 2008. – 198 б.

18. Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под. ред. В.А. Сластенина. - М.: «Академия», 2013. - 576 с.

19. Подласый И.П. Педагогика: Учебник. — М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.

20. **Muslimov N.A. va boshq. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.** – Toshkent, 2015.

21. Musurmonova A. va boshqalar Umumiy pedagogika 1-qism. O‘quv qo‘llanma T.: “O‘zkitobsavdonashriyoti” nashriyoti, 2020. -308 b.

22. Anderson L.W., Krathwohl D.R. et al. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001.

23. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.

24. Хуторской, А. В. Современная дидактика: учебник для вузов / А. В. Хуторской. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2022. — 406 с.

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.multimedia.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.inter-pedagogika.ru
5. www.edu.uz
6. www.lex.uz
7. www.gov.uz

YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur dastur asosida imtihon savollari talabgorning tanlagan sohasiga mos ravishda shakllantiriladi. Savollar umumiy pedagogik-metodologik blok hamda tegishli fan metodikasi blokidan iborat bo‘lishi mumkin. Imtihon komissiyasi talabgorning ilmiy fikrlashi, metodik tayyorgarligi va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligini kompleks baholaydi.

Dasturga normativ-huquqiy hujjatlardagi o‘zgarishlar, ta’lim sohasidagi yangi ilmiy-metodik yondashuvlar hamda institutning tegishli Kengash qarorlari asosida belgilangan tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.